



ISSN: 2181-9416

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТИНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

ALIYEV Ilhomjon Murod o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Qonunchilik va huquqiy
siyosat instituti tayanch doktranti
E-mail: ilhomaliyevv2@gmail.com
ORCID: 0009-0001-2118-1555

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования): ALIYEV I.M.
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi faoliyatida sun'iy intellekt
imkoniyatlaridan foydalanish – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2024) B. 42–51.

 4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining parlament faoliyatiga integratsiyalashuvi, xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi misolida tahlil qilinadi. Muallif sun'iy intellektning zamonaviy texnologik taraqqiyotdagi o'rni va uning parlament tizimiga ko'rsatayotgan ta'siri tarixdagi g'ildirak, bosmaxona, elektr, telefon va internet kabi transformatsion innovatsiyalar bilan qiyoslanadigan darajada chuqur ekanligini ta'kidlaydi. Tadqiqotda SI texnologiyalari yordamida qonun loyihalarini ishlab chiqish, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, taklif etilayotgan va qabul qilinayotgan qonun va qonun hujjatlarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish, parlament nutqlarini avtomatik transkripsiya qilish, hujjatlarni real vaqt rejimida tarjima qilish va avtomatlashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida ushbu texnologiyalar qonunchilik faoliyatining ochiqligi, shaffofligi, samaradorligi va jamoatchilik ishonchini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi alohida e'tirof etiladi. Shuningdek, maqolada SI n joriy etishda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan muammolar – inson omilining zarurligi, texnologiyalarning aniqligi, shaffoflik va demokratik tamoyillarga rioya etish kabi jihatlar ham chuqur tahlil qilinadi. Xulosa sifatida, sun'iy intellektdan oqilona va mas'uliyatli foydalanish orqali Qonunchilik palatasi faoliyatini modernizatsiya qilish va qonunchilik jarayonini jamiyat ehtiyojlariga yanada moslashtirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, Qonunchilik palatasi, huquqiy ekspertiza, avtomatlashtirish, parlament nutqi, transkripsiya, jamiyat ehtiyojlari, jamoatchilik ishonchi.

АЛИЕВ Илхомжон
Докторант Института законодательства
и правовой политики при
Президенте Республики Узбекистан

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЗАКОНОДАТЕЛЬНОЙ ПАЛАТЫ ОЛИЙ МАЖЛИСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется интеграция технологий искусственного интеллекта (ИИ) в парламентскую деятельность, в частности, на примере Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан. Автор подчеркивает, что роль искусственного интеллекта в современном технологическом прогрессе и его влияние на парламентскую систему столь же глубоки, как и трансформационные инновации в истории, такие как колесо, типография, электричество, телефон и интернет. В исследовании рассматриваются возможности разработки законопроектов с использованием технологий ИИ, анализа нормативно-правовых

актов, проведения правовой экспертизы предлагаемых и принимаемых законов и законодательных актов, автоматической транскрипции парламентских выступлений, перевода и автоматизации документов в режиме реального времени. Особенно в условиях Узбекистана эти технологии играют важную роль в повышении открытости, прозрачности, эффективности и доверия общественности в законодательной деятельности. В статье также подробно анализируются проблемы, которые могут возникнуть при внедрении ИИ - необходимость человеческого фактора, точность технологий, прозрачность и соблюдение демократических принципов. В заключение обосновываются возможности модернизации деятельности Законодательной палаты и дальнейшей адаптации законодательного процесса к потребностям общества посредством рационального и ответственного использования искусственного интеллекта.

Ключевые слова: искусственный интеллект, Законодательная палата, правовая экспертиза, автоматизация, парламентская речь, транскрипция, потребности общества, общественное доверие.

ILKHOMJON Aliev

PhD student at the Institute of
Legislation and Legal Policy under the
President of the Republic of Uzbekistan

USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE OPPORTUNITIES IN THE ACTIVITIES OF THE LEGISLATIVE CHAMBER OF THE OLIJ MAJLIS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ANNOTATION

This article analyzes the integration of artificial intelligence (AI) technologies into parliamentary activity, in particular, using the example of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. The author emphasizes that the role of artificial intelligence in modern technological development and its impact on the parliamentary system is comparable to transformational innovations in history, such as the wheel, printing house, electricity, telephone, and the Internet. The study examines the possibilities of using AI technologies for drafting legislative proposals, analyzing normative legal documents, conducting legal expertise of proposed and adopted laws and legislative acts, automatic transcription of parliamentary speeches, real-time translation of documents, and automation of related processes. It is especially noted that in the conditions of Uzbekistan, these technologies play an important role in increasing the openness, transparency, effectiveness, and public trust of legislative activity. The article also analyzes in depth the problems that may arise during the implementation of AI - such aspects as the need for the human factor, the accuracy of technologies, transparency, and adherence to democratic principles. In conclusion, the possibilities of modernizing the activities of the Legislative Chamber and further adapting the legislative process to the needs of society through the rational and responsible use of artificial intelligence are substantiated.

Keywords: artificial intelligence, Legislative Chamber, legal expertise, automation, parliamentary speech, transcription, public needs, public trust.

Globalashuv jarayonida sun'iy intellekt (keyingi o'rinlarda SI) texnologiyalari davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida faol qo'llanilmoqda va turli sohalarida ro'y berayotgan muhim o'zgarishlar hamda jarayonlarning asosiy elementiga aylanmoqda. Shu bois, Sining mavjud imkoniyatlaridan nafaqat davlat boshqaruvi va davlat xizmatlarida balki, qonunchilik jarayonida ham foydalanilishi mazkur sohaning rivojlanishiga munosib hissa qo'shishi mumkin.

Sining odatiy vazifalarni avtomatlashtirish, murakkab ma'lumotlarni tahlil qilish va qonun loyihasini ishlab chiqishda potensial qo'llab-quvvatlash hamda bashorat qilish qobiliyati operatsion samaradorlikni oshirish uchun istiqbolli yo'llarni taklif qiladi.

Xususan, mazkur jarayonga SI texnologiyalarining tadbiq etilishi parlamentdagi nutqlarni transkripsiya qilish, hujjatlarni tarjima qilish, parlamentlarda o'tkazilayotgan majlis axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida yoritib borilayotganda esa audio va video yozuvlarni subtitrlash, hujjatlardagi asosiy mavzular va tushunchalarni o'z vaqtida aniqlash va tasniflash, kun tartibidagi qonun va qonun hujjatlarini katta hajmdagi qonunchilik bazasiga taqqoslagan holda qisqa vaqt ichida tahlil qilish, bashoratli tahlilni amalga oshirish, tahlillar asosida tavsiyalar shakllantirish va shu o'rinda ommaviy murojaatlarni qabul qilish orqali jamoatchilik fikrini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini taqdim etadi.

Ammo, mazkur jarayon yuqoridagi kabi imkoniyatlar bilan birga bir qancha muammolar va xavflarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, SI texnologiyalari va ilovalarini parlamentga tadbiq etish jarayoni noyob imkoniyatlar, yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan muammolar va axloqiy mulohazalarni sinchkovlik bilan muhokama qilishni talab etadi.

Parlamentlar o'z qonunchilik, vakillik va nazorat funksiyalarini yanada samarali bajarish maqsadida raqamli transformatsiyaga intilmoqda. Lekin, parlamentlar ushbu yangi inqilobiy hududda harakat qilar ekan, innovatsiyalar, an'analar va mas'uliyatni muvozanatlash va muvofiqlashtirish masalalariga chuqur e'tibor qaratishlari lozim bo'ladi.

Mazkur maqolada SIning parlament faoliyatiga integratsiyasi, bu yo'ldagi yutuqlar, muammolar, demokratik tamoyillarga ta'siri va istiqbolli yo'nalishlar haqida so'z boradi.

MATERIAL VA METODLAR

Stanford universitetining 2024-yilgi AI Index hisobotiga ko'ra, so'nggi yillarda SIga oid qonunlar global qonunchilik miqyosida sezilarli darajada oshdi. 2016-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda 127 davlat parlamenti jami 123 ta SI haqida so'z yuritilgan qonun loyihalarini qabul qilgan. Bu qonunlar ta'lim sohasidagi islohotlar, SI algoritmlarida kamsitishning oldini olish hamda SI bo'yicha o'quv dasturlarini yaratish kabi turli masalalarni qamrab oladi [1]. Bu esa SI texnologiyalarini mas'uliyat bilan ishlab chiqish va joriy etishni boshqarish uchun normativ-huquqiy asoslar zarurligini tobora kengroq tan olinayotganini ko'rsatadi.

Bu kabi qonunchilik tashabbuslarining maqsadi – SI taraqqiyotidan jamiyat foyda ko'rishini ta'minlash va uning manipulyatsiya yoki noto'g'ri ishlatilishidan yuzaga keladigan xavflarni kamaytirishdir. Westminster Democracy Foundation (WFD) tomonidan yaqinda taqdim etilgan "Global sun'iy intellekt xavfsizligiga demokratik yondashuv" nomli siyosiy hujjatda qayd etilishicha, parlamentlar SI texnologiyalarini joriy etishda qat'iy siyosatlar, axloqiy sinovlar va keng qamrovli treninglarga tayanishi kerak [2].

Hozirgi kunda mamlakatlar parlamentlari nafaqat SI texnologiyalariga oid bo'lgan qonunlarni qabul qilyapti, balki ularni o'z faoliyatiga ham tadbiq etishni boshladi.

Global miqyosda yuz bergan COVID-19 pandemiyasi bir tomondan juda ko'plab qurbonlarga sababchi bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan nafaqat turli sohalarni, balki ko'p yillik parlament tartib-qoidalarini ham inqilob qilish uchun ajoyib imkoniyat yaratdi. Umuman olganda, garchi ular ish tartibiga ta'sir qilmagan bo'lsa-da, parlamentlar faoliyatida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. 2022-yil holatiga ko'ra, statistik ma'lumotlarga qaraganda parlamentlarning qariyb yarmi (47%) yalpi majlislarni uzluksiz davom ettirish imkonini beruvchi o'zining ichki tartib-qoidalariga o'zgartirish kiritishga erishgan [3].

SI yordamida qaror qabul qilish amaliyoti sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish yoki havo harakati oqimini boshqarish kabi sohalarda tobora ko'proq foydalanilayotgan bo'lsa-da, uning parlament kontekstida qo'llanilishi nisbatan o'rganilmaganligicha qolmoqda [4]. Parlamentlarda SIga asoslangan ilovalardan foydalanish bir necha o'n yillik qonunchilik tartib-qoidalarini va an'alarini

hamda qonun ijodkorligi mezonlarini o'zgartirishi mumkin bo'lgan zamonaviy, kuchli va samarali jarayon deb baholanmoqda.

Garchi, bu kabi mavzular chuqur mulohaza yuritishni talab qilsa-da, rivojlangan mamlakatlarning tajribalari hamda bir nechta tarqoq fikrlar qiziqarli munozarani ochishi mumkin.

SI texnologiyalarining parlament faoliyatida qo'llanilishining qiziqarli yo'nalishlaridan biri - bu qonun loyihalarini tayyorlash va qonunchilik hujjatlarini tayyorlashda foydalanishdir. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, taxminan "6 foiz" parlamentlar qonun loyihalarini ishlab chiqishda SIning ayrim funksiyalaridan foydalangan, yana uchdan bir qismi esa bu imkoniyatni ko'rib chiqmoqda [5].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Italiya va Yevropaning bir nechta nufuzli ilmiy muassasalarida faoliyat yurituvchi, professor Ylenia Maria Citino o'zining 2023-yil 26-iyunda nashr qilingan maqolasida ilk bor "Bot-legislator" ya'ni "Bot-qonun chiqaruvchi" atamasidan foydalangan. Uning fikriga ko'ra, huddi ChatGPT ilovasi katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qila olganidek, bu kabi ilovalar ham taklif qilinayotgan qonun loyihalarini qayta ishlash orqali ularni mukammallashtirishi yoki ma'lumotlardan foydalangan holda butun qonun loyihasini ishlab chiqishi mumkin.

Shuningdek, Gretsiya parlamenti vakili, doktor Fotis Fitsilis WFD blogida ta'kidlaganidek, "SIning rivojlanishi parlamentlarni qog'ozga asoslangan tizimlardan ma'lumotlarga asoslangan muassasalarga aylantirishda muhim rol o'ynashi kutilmoqda"[6]. Shuningdek, uning fikriga ko'ra keng qamrovli tadqiqotlar, hamkorlik va ekspertiza natijasi asosida SIdan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqilishi va keng qamrovli ko'rsatmalarning nashr etilishi parlament hayotida juda muhim voqea hisoblanadi.

Xususan, Inter-Parlamentlar Ittifoqi (IPU) tomonidan "Parlamentlarda SI ishlatilishining qo'llanmalari" mavzusidagi hisobotida bu boradagi tajribalar keltirilgan [7].

Bundan tashqari, professor Ylenia Maria Citino va Fotis Fitsilis o'z tadqiqotlarida bu kabi innovatsiyalar qonunchilik jarayonlarini inqilob qilish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, uning qo'llanilishida vujudga kelishi mumkin bo'lgan xavflar, xususan, kiberxavfsizlik, ma'lumotlarning asosliliigi va aniqligi, diskriminatsiya hamda shu kabi muammolarni ham tan olish kerak ekanligini ta'kidlab o'tishgan.

Braziliya Deputatlar palatasi bosh axborot direktori (CIO) o'rinbosari Patrisiya Almeyda davlat muassasalarida SI bo'yicha olib borgan tadqiqotlari haqida fikr yuritib, parlamentlarda SIni qabul qilishning uch bosqichini tasvirlab bergan bo'lib, ular quyidagilar:

Birinchi bosqich: SI loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirgan va hozirda ushbu yechimlarni barqaror qilishga e'tibor qaratayotgan parlamentlar kiradi. Ularning asosiy e'tibori siyosat va strategiyani ishlab chiqish hamda SI xizmatlarini o'z ichiga olgan davlat xaridlari uchun talablarni yaratishga qaratilgan.

Ikkinchi bosqich: "Laboratoriya rejimida" SIni sinab ko'rayotgan parlamentlar kiradi - SIning afzalliklarini namoyish qilish va parlament rahbariyatining qo'llab-quvvatlashi va moliyalashtirishi uchun yechimlarni sinab ko'rish.

Uchinchi bosqich: Asosiy IT infratuzilmasi, qonunchilik tizimlari va ma'lumotlarni boshqarishning yo'qligi sababli, hali SIni qabul qilmagan parlamentlardan iborat[8].

Shu sababli, har bir guruhning turli xil ehtiyojlari bor va ular yo'l-yo'riq va yordamdan, ayniqsa parlamentlararo aloqalardan foydalanishlari mumkin[9].

TADDIQOT NATIJALARI

SIning parlamentdagi rolining muhim jihatlaridan biri qonunchilik matnlarini huquqiy ekspertiza talab qilmasdan oson tushunarli qilishdir. Bu, ayniqsa, qonunlar keng aholi uchun ochiq

bo'lishi kerak bo'lgan demokratik tizimda juda muhim hisoblanadi. SI huquqiy matnlarni ravshanlik va aniqlik bilan tartibga solish va tizimlashtirishga yordam beradi, shu bilan ularning tushunarililigi va samaradorligini oshiradi.

Shundan kelib chiqqan holda bir qancha rivojlangan mamlakatlar o'zining qonun chiqaruvchi organlarida SI texnologiyalarini joriy etishdagi tajribalarini yuksaltirib bormoqdalar. Xususan, Argentinaning "DipLab" Deputatlar palatasi "Intellectual parlament" loyihasi qonunchilik jarayonlarida SI ni amaliy qo'llash namunasini ko'rsatadi. Ushbu tashabbus qonunchilik hujjatlarini, xususan, 2005-yildan buyon parlament sessiyasi stenogrammalarining stenok versiyalarini raqamlashtirish va indeksatsiya qilishga qaratilgan. Ushbu hujjatlarni tegishli mavzularga ajratish uchun tabiiy tilni qayta ishlash vositasi bo'lgan yashirin "Dirichlet Allocation" (LDA) algoritmi qo'llaniladi. SI ga asoslangan ushbu yondashuv nafaqat qonunchilik ma'lumotlarini boshqarishni soddalashtiradi, balki vaqt o'tishi bilan qonunchilik mavzularining evolyutsiyasi haqida tushuncha berib, kontentni yanada nozik tahlil qilish imkonini beradi.

SI tizimi qonunchilikni muhokama qilishda asosiy mavzularni aniqlaydi va shu bilan birga qonunchilik tendensiyalari va ustuvorliklarini yaxshiroq tushunishga hamda taqqoslash asosida tahlil qilishga yordam beradi. Ushbu texnologiya davlat siyosatini har tomonlama monitoring qilish va qonunchilik amaliyoti va jamiyat talablari o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga yordam beradi. Siyosat evolyutsiyasi va mavzu tendensiyalarini kuzatish vositalarini taqdim etish orqali AI tizimi qonunchilik jarayonining shaffofligi va samaradorligiga sezilarli hissa qo'shadi[10].

Shuningdek, Estoniya parlamenti Riigikogu o'z faoliyatiga SI ni qo'shib, katta til modellari asosidagi "HANS" nomli tizimdan foydalanib, barcha parlament yig'ilishlarini, jumladan, yalpi majlislar va qo'mitalardagi nutqlarni avtomatik tarzda tanib olish orqali transkripsiya qilish uchun kiritdi. Yalpi sessiyalar uchun SI tomonidan yaratilgan so'zma-so'z matn onlayn nashr etilishidan oldin muharrirlar tomonidan ko'rib chiqiladi va tuzatiladi. Qo'mitalarda raqamli shaklda yaratilgan transkript xodimlar tomonidan protokollarni qo'lda tayyorlash uchun ishlatiladi. "HANS" da xatolik darajasi taxminan 5% ni tashkil qiladi, bu ma'ruzachilar va uchrashuv kontekstiga qarab farq qilishi mumkin[11]. Mazkur jarayon esa yapli majlislardagi nutqlarni yozib olishni soddalashtirdi.

Estoniya parlamenti raqamli texnologiyalar sohasida oldinga qarab harakatlanar ekan, Riigikogu qo'mita yig'ilishlarining avtomatlashtirilgan xulosalarini yaratish kabi ilg'or SI ilovalarini o'rganishni ham rejalashtirmoqda. Shu o'rinda, ishonchlilik va aniqlik bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun parlament ikki tomonlama yondashuvni qo'llaydi: uning imkoniyatlari va cheklovlarini tushunish uchun "laboratoriya rejimida" texnologiyani ishlab chiqish va bir vaqtning o'zida SI talablari bo'yicha munozaralarga rahbarlar va siyosatchilarni jalb qilish. Estoniya inson nazoratiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda, qo'mita jurnalistlari SI tomonidan yaratilgan matnni ko'rib chiqish, tahrirlash va yakunlashini ta'minlamoqda, bu esa sun'iy intellektning inson mulohazalari o'rnini bosishi haqidagi qo'rquvni yumshatadi va SI dan faqatgina avtomatik tarzda bajariladigan ishlarni qilishda va tezkor tahlil va fikr olishda foydalaniladi[12].

Bu borada Tayvan ham katta yutuqlarga erishmoqda. Tayvan Qonunchilik Yuanining zallarida professional shifokor va qonunchi bo'lgan doktor Chen Ching-Xui muhim bir muammo bilan yuzmayuz keldi. Bosh vazir bilan rejalashtirilgan muhim 30 daqiqalik savol-javob sessiyasi arafasida u vaqtincha ovoz bog'i (vokal simlari) shishishi sababli ovozini yo'qotdi.

Sessiyani bekor qilish o'rniga, uning yordamchisi ya'ni uning hamkasbi va KMT partiyasi a'zosi bo'lgan doktor Ju Chun Koga murojaat qildi. Mazkur vaziyatda Doktor Ko va uning jamoasi ElevenLabsning ovoz klonlash texnologiyasidan foydalandi. Doktor Chenning avvalgi chiqishlaridan

yozib olingan audiosi asosida, ular uning tabiiy nutqiga juda yaqin bo'lgan ovoz klonini tezda yaratishga muvaffaq bo'lishdi.

Biroq bu faqat texnologik masala emas edi. Parlament qoidalariga ko'ra, rasmiy bayonnomalarga kiritilishi uchun har qanday bayonot vakil tomonidan ovoz chiqarib o'qilishi shart. Oddiy audioyozuvlar odatda qabul qilinmaydi.

Bu holatda, doktor Ko va uning jamoasi partiyalararo hamkorlik ruhida parlament prezidenti, hukumat vakili va bosh vazirdan uch soat ichida ruxsat olishga muvaffaq bo'ldi.

Tayvan (Xitoy Respublikasi) Qonunchilik Yuanining prezidenti Han tomonidan berilgan ruxsat asosida, doktor Chen Ching-Xui SI yordamida ovoz klonlash texnologiyasi orqali Tayvan parlamentida ilk marotaba interpellatsiya (rasmiy savol-javob) o'tkazgan qonunchi sifatida tarixga kirdi. Bosh vazir doktor Chenning lablari qimirlamasdan turib ovozini eshitganida hayratdan lol qoldi.

Ushbu tarixiy voqea parlament jarayonlarida SIning kengroq qo'llash bo'yicha muhokamalarga muhim yo'l ochdi. Hozirda qonunchilar uzun qonun loyihalarini birma-bir o'qib chiqishga majbur, chunki ularning rasmiy protokolga kiritilishi shart. Endi bu mashaqqatli jarayonni avtomatlashtirish imkoniyati ko'rib chiqilmoqda.

Doktor Ko bu voqeani inson va sun'iy intellekt hamkorligining yorqin namunasi deb hisoblaydi va quyidagi jumlaning ta'kidlab o'tgan: "Bu texnologiya qanday qilib demokratik jarayonlarimizni qo'llab-quvvatlashi va kuchaytirishini ko'rsatadi, o'rnini bosishini emas"[13].

Shu o'rinda, O'rta Osiyo mintaqasi doirasida olib borilayotgan tadqiqot va izlanishlarga ham e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Xususan, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev 2023-yil 1-sentabrdagi "Adolatli Qozog'istonning iqtisodiy yo'nalishi" nomli Qozog'iston xalqiga Murojaatnomasida raqamlashtirishning strategik ahamiyatini ta'kidlab, IT-texnologiyalar (SI) sohasida yetakchi davlatga aylanish maqsadini qo'ygan edi. Ushbu tashabbus mamlakat hukumati tomonidan tasdiqlangan "2024-2029-yillarda sun'iy intellektning rivojlantirish konsepsiyasi"da ham o'z ifodasini topgan[14].

Qozog'iston Respublikasi parlamenti uchta asosiy funksiyani bajaradi: vakillik, nazorat va qonun chiqaruvchi. Ayni paytda raqamli sa'y-harakatlar birinchi navbatda vakillik funksiyasini rivojlantirishga, ya'ni joylarda uchrashuvlar o'tkazish orqali parlament va aholi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga, fuqarolarni qabul qilishni raqamlashtirishga va parlamentning internet resurslaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash orqali biznes jarayonlarini takomillashtirishga, shuningdek, videokonferensaloqa uchun onlayn platformalardan foydalanishga qaratilgan. Shu bilan birga, SIning qonunchilik jarayoniga joriy etish an'anaviy ish usullarini tubdan o'zgartirishi mumkin bo'lgan muhim salohiyatga ega deb qaralmoqda. SIning to'liq integratsiyasi nafaqat qonun ijodkorligi faoliyati sifati va samaradorligini oshirishi, balki deputatlar zimmasiga tushadigan byurokratik yukni sezilarli darajada kamaytirishi, ularni kundalik ishlardan ozod qilishi mumkin. Bu qonun chiqaruvchilarga qonun ijodkorligi rivojlanishining strategik jihatlariga ko'proq e'tibor qaratish va jamiyatda tez o'zgarib turadigan muammolarga yanada samaraliroq munosabatda bo'lish imkonini beradi.

Bundan tashqari, SI ma'lumotlar tahlilini o'tkazishda, qonunchilikni rivojlantirishni chuqur ma'lumotli va ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlashda parlament pozitsiyasini sezilarli darajada mustahkamlashi mumkin. Bu, albatta, "Kuchli Prezident – nufuzli parlament - hisobdor hukumat" formulasi doirasidagi qonun ijodkorligi jarayonining sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Avtomatlashtirilgan tizimlar qonun loyihalarini tuzadi, ularning huquqiy texnik standartlarga muvofiqligini ta'minlaydi va barcha zarur huquqiy elementlarni o'z ichiga oladi, bu esa qonun

loyihalarini ishlab chiqish jarayonini tezlashtiradi va sifatini oshiradi. Qonun ijodkorligi jarayoniga “eski” yondashuv samarasizligining yorqin misolini Qozog‘iston Respublikasining “Suv kodeksi” loyihasi ustida ishlashda ko‘rish mumkin, chunki uning dastlabki tahlilida 70 ga yaqin konseptual izohlar, qonunosti hujjatlarining yakunigacha tuzatilmaganligi va mavjud konstitutsiyaviy normalarga zid ravishdagi normalar aniqlangan[14].

Bundan tashqari, raketa zarbalari, kiberhujumlar va elektr ta’minotidagi uzilishlarga qaramay, parlamentning uzluksiz ishlashini ta’minlash maqsadida Ukraina Oliy Radasi 2024-yil 2-dekabrda SIni o‘z faoliyatiga integratsiya qilish qarorini e’lon qildi. Oliy Radaning IT bo‘limi boshlig‘i Aleksey Sidorenkoning ta’kidlashicha, ushbu tahdidlarga qaramay, Oliy Rada yuqori darajadagi kiberxavfsizlik va uzluksiz ish faoliyatini saqlab qolgan. Shuningdek, uning fikriga ko‘ra urush davom etayotganiga qaramay, ular elektron hujjatlar va qonun loyihalarini bilan masofadan xavfsiz ishlashni, shuningdek, videokonferensaloqa orqali yig‘ilishlarda masofadan turib ishtirok etishni ta’minlagan. Bu yechimlar ularning kundalik ishlarining bir qismiga aylangan[15].

Shu jumladan, Yevropa Ittifoqi Kengashi tomonidan 2024-yil 21-mayda qabul qilingan “Sun’iy intellekt to‘g‘risida”gi qonun 2024-yil 1-avgustda kuchga kirgan. Mazkur Qonunda SI texnologiyalarini mamlakatlar parlamentlari faoliyatiga tadbqiq etish yuzasidan aniq normalar keltirilmagan bo‘lsa-da mazkur qonun dunyo miqyosida SI faoliyatini huquqiy tartibga solishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, SIning parlament faoliyatiga tadbqiq etish orqali mamlakatlar o‘z faoliyatlari samaradorligini oshirishga erishadi, xususan, huquqiy ekspertiza qilish, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash, qonunchilik matnlarini yaratish va nutqlarni avtomatik ravishda yozib olishda parlamentning yordamchisi vazifasini bajarishi mumkin.

TADQIQOT NATIJALARI TAHLILI

Yuqorida keltirib o‘tilgan xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasining qonun ijodkorligi (norma ijodkorligi) sohasiga ham SI imkoniyatlarini tadbqiq etish va bundan kutilayotgan natijalar haqida ta’kidlab o‘tish lozim. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasida qabul qilinishi hamda Senatda tasdiqlanishi uchun taqdim etilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish jarayonida aynan SI imkoniyatlaridan foydalanish nazarda tutilmoqda.

Xususan, bugungi kunda Qonunchilik palatasida 150 ta deputat faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish vaqtida har bir deputatning individual fikrini bildirishi hamda tinglanishi vaqt nuqta’i nazaridan majlis reglamentiga mos kelmasligi hamda muhokama vaqtining chegaralanganligi bois, SI imkoniyatlarini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur jarayonda aynan muhokama qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan SIning taqdim etgan tahlillarini hamda ushbu hujjatlar qabul qilinishi natijasida kutilayotgan ehtimoliy natijalar bo‘yicha taqdim etilgan bashoratlarning tinglanishi nazarda tutilmoqda. Misol uchun, yalpi majlisda muhokama qilinayotgan qonun bo‘yicha bir nechta deputatlarning fikri eshitiladi ammo boshqa barcha deputatlarning fikrini eshitish uchun reglamentga ko‘ra vaqt yetmasligi mumkin, lekin SI yordamida boshqa qonun hujjatlari va qonunchilik bilan taqqoslangan hamda ularga asosan tahlil qilingan fikrning o‘qib eshittirilishi (yuqorida ta’kidlangan Tayvan parlamentida o‘qib eshittirilgani kabi) vaqt nuqta’i nazaridan ham internet tarmog‘ida mavjud ma’lumotlardan foydalanish nuqta’i nazaridan ham samaraliroq bo‘ladi.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish jarayonida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish nafaqat vaqt tejashiga, balki muhokama jarayonining

oshkoraligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, muhim savol paydo bo'ladi: parlament a'zosi o'rniga SIning takliflari tinglanadimi? Menimcha, bunga ijobiy javob berish qiyin, chunki SI tomonidan ilgari surilgan fikrlar qonun ijodkorligi doirasida qo'llanilganda, huquqiy xavflar yuzaga kelishi mumkin.

Shu sababli, qonunchilik faoliyatida SI tomonidan taqdim etilgan ma'lumot va tahlillarni to'liq emas, balki cheklangan tarzda, inson omili ishtirokida baholagan holda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki SI algoritmlari keng ko'lamli huquqiy materiallarni, xususan milliy qonunlar va xalqaro standartlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish, mavjud loyihadagi normativ qarama-qarshiliklarni aniqlash va inson e'tiboridan chetda qolgan jihatlarni ko'rsatib berish imkoniyatiga ega.

Ya'ni, SI vositalari orqali normativ-huquqiy hujjat loyihalari amaldagi qonun hujjatlari va xalqaro huquq me'yorlari bilan solishtirilib, ular orasidagi farqlar, ziddiyatlar aniqlanadi. Bu esa o'z navbatida, qonun hujjatlari sifatini oshirish, huquqiy xatolarning oldini olish, shuningdek, ekspertizaga yo'naltirilgan davlat mablag'laridan tejamkorlik bilan foydalanish imkonini beradi.

Amaliyotda har bir normativ-huquqiy hujjat loyihasi jamoatchilik muhokamasi portaliga joylashtiriladi va fuqarolar, soha mutaxassislari tomonidan turli mulohaza va takliflar bildiriladi. Ana shu fikr-mulohazalar SI yordamida tahlil qilinib, parlament muhokamasi jarayonida asosli ma'lumot sifatida taqdim etilishi mumkin. Bunday integratsiya biryoqlama qaror qabul qilish xavfini kamaytiradi va ko'p tomonlama yondashuvga asoslangan puxta qonunlarni ishlab chiqishda yordam beradi.

Aholining faol qatlamlari, jumladan, o'z sohasida katta tajriba to'plagan fuqarolar tomonidan bildirilgan taklif va e'tirozlar SI vositasida tizimlashtirilgan holda parlament muhokamalarida hisobga olinadigan bo'lsa, qonunchilik sifat jihatidan yanada mustahkamlanadi.

Bundan tashqari, SI texnologiyalaridan yalpi majlislar jarayonida deputatlar tomonidan aytilgan nutqlarni real vaqt rejimida avtomatik tarzda matnga aylantirish (transkripsiya qilish) imkoniyatlari mavjud. Bu orqali bayonnomalarni tayyorlashga sarflanadigan vaqt sezilarli darajada qisqaradi. Bunday amaliyot allaqachon Estoniya parlamentida muvaffaqiyatli tatbiq etilganini yuqorida qayd etgan edik.

Yuqoridagilarga erishilishi natijasida ya'ni jamiyat uchun davlat xizmatlari ko'rsatishda erishilgan yutuqlar hamda ushbu yutuqlarning xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-sonli Qarori va unga ilova qilingan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi"da keltirib o'tilgan hukumatning SIga tayyorgarlik indeksiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur strategiyaning 3-bobi 2-qismiga ko'ra milliy qonunchilik hujjatlarini xalqaro tajriba asosida ishlab chiqish va takomillashtirish, sohadagi ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qulay muhit yaratish hamda xavfsizlik va etika talablarini joriy etish strategiyaning asosiy maqsad va vazifalari etib belgilangan.

Shu jumladan, ushbu bobning 1-paragrafida milliy qonunchilik hujjatlarini xalqaro tajriba asosida ishlab chiqish va takomillashtirish maqsadida aynan tadqiqotlar natijalari hamda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o'rgangan holda sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanishini qo'llab-quvvatlash sohasida mustahkam huquqiy asos yaratish, xususan, sohadagi davlat standartlari va normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiqish va ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishni rag'batlantirish bo'yicha huquqiy asoslarni takomillashtirish hamda ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash hamda ularni muhofaza qilish va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish choralari ko'rish belgilab qo'yilgan.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham mamlakatimizni mintaqaviy “IT-HUB”ga aylantirish vazifasi belgilangan. Shu maqsad yo‘lida raqamli texnologiyalar va ularga taalluqli bo‘lgan yo‘nalishlar bosqichma-bosqich rivojlantirib kelinmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yilning 7-aprel kuni bo‘lib o‘tgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasida so‘zlagan nutqida SI dan foydalanish etikasi bo‘yicha model qonun ishlab chiqishni taklif qildi[16].

Yuqoridagi kabi tashabbus va sa’y-harakatlardan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda ham SI texnologiyalaridan foydalanishni huquqiy tartibga solish va uni sohalariga tadbqiq etish yuzasidan huquqiy asoslarini yaratish bo‘yicha keng qamrovli chor-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

XULOSALAR

SI texnologiyalarini mamlakatlar parlamentlari faoliyatiga tadbqiq etish bo‘yicha xalqaro ekspertlar va huquqshunos olimlar turlicha fikrlarni keltirganlar. Xususan, professor Ylenia Maria Citino hamda Fotis Fitsilisning tadqiqotlari va fikrlari alohida ahamiyatga egadir. Xulosa sifatida esa, mazkur tadqiqotchilarning fikrlari va SIni o‘z parlamentlari faoliyatiga tadbqiq etgan mamlakatlarning zamonaviy tajribalaridan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni shakllantirishni ma’qul deb topdik:

Birinchidan: huquqiy ekspertiza uchun SI fikrlari va tahlillaridan foydalanish. SI algoritmlari katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qiladi, qonun loyihalaridagi qarama-qarshiliklarni aniqlaydi va ularni amaldagi qonunchilik va xalqaro standartlar bilan taqqoslaydi. Bu qonun hujjatlari loyihalari sifatini oshirish va huquqiy xatolarga yo‘l qo‘ymaslik, qonunlarni ekspertizadan o‘tkazish uchun ajratilayotgan byudjet mablag‘larini sezilarli darajada tejash imkonini beradi.

Ikkinchidan: huquqiy soha uchun ma’lumotlarni tahlil qilish asosida prognozlarni ishlab chiqish. Katta ma’lumotlar va tahliliy vositalardan foydalanish muayyan qonun qabul qilinishining mumkin bo‘lgan oqibatlari, uning iqtisodiyot, ijtimoiy soha va fuqarolar hayotiga ta’siri haqida qimmatli prognozlar berish imkonini beradi. Bu qonun chiqaruvchilarga ko‘proq asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Uchinchidan: yalpi majlislardagi nutqlarni transpriksiya qilish jarayonini avtomatlashtirish. Zamonaviy texnologiyalar qo‘l mehnatini minimallashtirishga va bayonnomalarni hamda qonun loyihalari matnlarini yaratishda “inson omilini” kamaytirishga yordam beradi.

SI texnologiyalari kundan-kunga jadal rivojlanib borayotgan davrda uning yutuqlaridan oqilona va mas’uliyatli foydalanish orqali Qonunchilik palatasi faoliyatini modernizatsiya qilish va qonunchilik jarayonini soddalashtirish hamda uni jamiyat ehtiyojlariga yanada moslashtirish imkoniyatlari yaratiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. How parliaments can harness the benefits of AI democratically. 20 August 2024. <https://www.wfd.org/commentary/how-parliaments-can-harness-benefits-ai-democratically>
2. A democratic approach to global AI safety. 27 October 2023. <https://www.wfd.org/what-we-do/resources/democratic-approach-global-ai-safety>
3. IPU, World E-Parliament Report 2022, www.ipu.org/file/15804/download, p. 23.
4. See Y.M. Citino, *L'intelligenza artificiale applicata ai processi decisionali parlamentari: una griglia di funzioni e una stima dei rischi per la neutralità delle tecnologie*, in *Rassegna Parlamentare*, 3/2022, 629-674 and the comprehensive study edited by F. Fitsilis – G. Mikros, *Smart-Parliaments. Data-Driven Democracy*, Cheshire, European Liberal Forum, 2022.

5. Bot-Legislator and AI-powered legislative processes. By Ylenia Maria Citino on June 26, 2023.
6. Parliaments must get to grips with AI. By Dr. Fotis Fitsilis, Hellenic Parliament. 16 July 2024. <https://www.wfd.org/commentary/parliaments-must-get-grips-ai>
7. Artificial intelligence: draft IPU resolution and “Use cases” for AI in parliaments published. 29 July 2024. <https://www.ipu.org/news/news-in-brief/2024-07/artificial-intelligence-draft-ipu-resolution-and-use-cases-ai-in-parliaments-published>
8. “International collaboration and examples”. <https://www.popvox.org/representative-bodies-in-the-ai-era/international>
9. “Expert perspectives on AI in parliament,” *Inter-Parliamentary Union Innovation Tracker* (October 21, 2023).
10. Artificial Intelligence in the Argentine Chamber of Deputies: A Technological Revolution in Legislative Practice. About the Argentine Chamber of Deputies. Written on January, 2024.
11. “A view from Estonia: AI for advanced beginners,” *IPU Innovation Tracker Issue 16* (October 21, 2023).
12. “Estonian parliament uses speech recognition technology to create verbatim records,” *e-Estonia* (September 2020).
13. “Taiwan Parliament Makes History with First AI Voice Clone Interpellation”. *ElevenLabs*, 3 September 2024, <https://elevenlabs.io/blog/taiwan-parliament>.
14. Қазақстанда заңдарды жасанды интеллект әзірлейтін болады: миф немесе шындық. <https://kaz.inform.kz/news/kazakstanda-zandardi-zhasandi-intellekt-azrleytn-boladi-mif-nemese-shindik-e090d6/>
15. “Ukrainian Parliament to Integrate Artificial Intelligence in Legislative Process” December 2, 2024. <https://united24media.com/latest-news/ukrainian-parliament-to-integrate-artificial-intelligence-in-legislative-process-4170>
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasidagi nutqi. 07.04.2025. <https://president.uz/oz/lists/view/8034>

YURIST AXBOROTNOMASI

4-SON, 6-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 4, ВЫПУСК 6

LAWYER HERALD

VOLUME 6, ISSUE 4

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416